



JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING JAMIYAT RIVOJIDA TUTGAN O'RNINI

Xodjayev Ravshan Ilxanovich

Buxro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati, yurtimizda sportga bo'lgan e'tibor, yosh avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining o'rnini, sportning ijtimoiy xarakteri insonni shaxs sifatida tarbiyalashi, jamiyat rivojlanishi sport rivoji bilan ham bog'liqligi, dunyo miqyosida sportning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, ijtimoiy xarakter, inson, shaxs, jamiyat rivoji, sport rivoji.

ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И СПОРТ В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УДЕРЖИВАЮЩЕЕ ПОЛОЖЕНИЕ

Аннотация: в статье рассматриваются значение физической культуры и спорта, внимание к спорту в нашей стране, роль физкультурно-спортивной подготовки в воспитании подрастающего поколения, социальный характер спорта, воспитывающего человека как личность, развитие общества также связано с развитием спорта, обсуждается значение спорта в мировом масштабе.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, социальный характер, человек, личность, развитие общества, развитие спорта.

PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN SOCIAL DEVELOPMENT HOLDING POSITION

Abstract: the article discusses the importance of physical education and sports, attention to sports in our country, the role of physical education and sports training in the education of the young generation, the social character of sports that educates a person as an individual, the development of society is also related to the development of sports. the importance of sports on a global scale is discussed.

Key words: physical education, sport, social character, person, personality, development of society, development of sport.

Jamiyatimizning har bir a'zosini zaruriy ehtiyojlaridan biri ilm olish va kasb egallashdir. Mustaqil taraqqiyotimizning ilk kunlaridan boshlab uning huquq va manfaatlari oliy qadriyat sifatida ulug'lanib kelinmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan inson manfaatlarini ta'minlash barcha o'zgarish va islohotlarimizning bosh maqsadiga aylandi. Qayd qilganlarni ta'lim sohasidagi o'zgarishlar misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham keng ko'lamda e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizning jismoniy madaniyati va jismoniy tarbiyasi ta'limi jarayoni bundan istisno emas. Xozirgi kunda davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan "Barkamol avlod tarbiyasi"ning yetakchi o'zani sanalgan jismoniy madaniyat ta'limining rivojlanishiga innovasion salohiyat va qulay shart - sharoitlar yuzaga kelganligi o'z navbatida soha kadrlarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishni taqazo etadi. Bugun dunyoda sportning nafaqat g'oliblik natijalarini oshirib borish vazifasi, balkim ijtimoiy, iqtisodiy, xalqaro hamkorlik va birdamlik shuningdek



tarbiyaviylik vazifasi ham borligi ma'lum. Mazkur vazifalar asosida sport bugungi kunda umumbashariy qadriyatlarning eng asosiylaridan biri ekanligini qayd etish lozim. Sport bir so'z bilan aytganda jismoniy harakatlar yig'indisidir. Ma'lum jismoniy mashqlar bilan murabbiy qo'l ostida shug'ullanish, musobaqalarda ishtirok etish va sport natijalarini qo'lga kiritish sportning mohiyatini tashkil qiladi. Sport deyilganda, dastlab ko'z oldimizda kelishgan qad-qomatli inson tasvirlanadi. Shu bilan birga sport insonni nafaqat jismonan, balki aqlan, ahloqan, ma'nau tarbiyalash imkoniyatga ham ega. Bu o'rinda sportning jamiyatda tutgan o'rni, uning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tish lozim. Insoniyatning rivojlanishi bilan bir vaqtda turli sohalar, yo'nalishlar rivojlanib keldi. Buni biz ishlab chiqarish, madaniyat, ilm-fan shuningdek, sportda ham ko'rishimiz mumkin. Tarixiy manbaalar, arxeologik qazilmalar ajdodlarimiz qadimdan hozirgi sport atamasini o'zida mujassamlashtirgan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. O'sha paytda insonlar turmush-tarzi, yashash sharoitiga hamohang tarzda u yoki bu turdagi jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga extiyoj bo'lgan. Keyinchalik, insonlar ongining takomillashuvi, jamiyatning o'zgarishi, davrlar almashinuvi jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning o'ziga xos shakllarini ishlab chiqishni talab qilgan. Natijada, bugun biz fikr yuritmoqchi bo'layotgan sport tushunchasi o'zining asl mazmunini topdi.

Zamonaviy sport o'z oldiga faqatgina sport natijalarini egallashni emas, shug'ullanuvchini har tomonlama tarbiyalashni ham maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsad o'z ichiga qator yo'nalishlar va tarbiya sohalarini qamrab oladi. Sportchining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ruxiy barqarorligini va irodaviy sifatlarini tarbiyalash sport mashg'ulotlari jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar sirasiga kiritiladi. Sportning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir. Shu bilan birga sport umuminsoiiy qadriyat sifatida ham o'z mavqeyiga ega.

Sportning ijtimoiy xarakteri insonni shaxs sifatida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Jamiyat rivojlanishi bevosita jismoniy madaniyat tushunchasining ham rivojlanishiga olib keldi. Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan sport bugunga kelib o'zining yuksak ijtimoiy ahamiyatini namoyon qilmoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida sportning ahamiyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar, uning insonlar turmush-tarzidagi roli yuksak darajada ekanligini isbotladi.

Mazkur masala yuzasidan jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari, psixologlar, sotsiologlar tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar va turli darajadagi ilmiy-uslubiy manbaalar yaratildi.

Sportning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bunda shug'ullanuvchining vaqti mazmunli o'tadi. Salomatlikni tiklash va mustahkamlash, sport natijalariga erish kabi maqsadlarda sport bilan shug'ullanilganda mashg'ulot jarayonida va mashg'ulotlardan so'ng ham shug'ullanuvchilarning vaqtlari bekorga sarflanmasliklari aniqlangan.

Turli darajadagi shug'ullanuvchilar (xavaskorlar, yuqori malakali sportchilar) bilan o'tkazgan suhbatlar bildirilgan fikrlarning isbotini topadi. Barcha holatda ham shug'ullanuvchilar mashg'ulot va mashg'ulotlardan keyin vaqtlarini tejashlari, aniq rejalashtirilgan kun tartibi asosida faoliyat olib borishlari aytib o'tilgan.

Hozirda, zamonaviy sport mashg'ulotlari modeli hamda sport nazariyasi va amaliyoti tajribasida shug'ullanuvchini ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalasi alohida ko'rsatib o'tilgan. Sport bilan shug'ullanish jarayonida shaxsiy axloqiy xususiyatlarni tarbiyalash, axloq normalari doirasida kamol topish masalalari mashg'ulotlar jarayonining tarkibiy qismi sifatida o'z aksini topadi. Murabbiylar, sport mutaxassislari mashg'ulotlar jarayonida shug'ullanuvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash ishlarini ham olib boradilar. O'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish,



shug‘ullanish tartibqoidalarini hurmat qilish, murabbiyning topshiriqlarini bajarish kabilar mashg‘ulot jarayonida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Jamoani hurmat qilish, murabbiy va jamoa rahbary tomonidan berilgan vazifalarni to‘la amalga oshirish masalalari mashg‘ulotlar jarayonida sportchi tomonidan o‘zlashtiriladi, bu boradagi ko‘nikma va malakalar takomillashtirilib boriladi. Bu degan so‘z shug‘ullanuvchining ma‘naviy-axloqiy sifatleri tobora tarbiyalanib boradi. Hozirga kelib sport dunyo mamlakatlari umumiy madaniyatining bir qismiga aylandi. Sportsiz mamlakatlar rivojini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning bilan birga sport davlatlarning halqaro maydondagi obrusini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Zero, xech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga tezda tanita olmaydi. Xalqaro sport musobaqalarida sportchilarning har bir chikishlari ular yashaydigan davlat nomi oilan tilga olinadi. Egallangan xar bir g‘alaba yoki yutuq bevosita sportchining vatani nomi bilan birgalikda e‘lon qilinadi.

Ma‘lumki, sportchilarni taqdirlash jarayonida ularning vatanlari bayrog‘i ko‘tarilib, davlat madhiyasi yangraydi. Bu an‘ana tusiga kirganligi barchamizga ma‘lum. Bu borada xalqaro sport maydonlarida holiblikni qo‘lga kiriggan R.Sobirov, A.Tangriyev, E.Rasulov, X.Tojiboyev kabi sportchilar bilan suhbat o‘tkazildi. Suhbatlar jarayonida shu narsa aniqlandiki, sportchi aynan shu g‘oliblik nashidasini tatish uchun o‘zbek muddatli mashaqqatli mehnat qiladi. Uning sharafiga Vatan madhiyasi yangraganda barcha mashaqqatlar o‘nitiladi va o‘zgacha bir xis tuyg‘u kechadi. Bu tuyg‘u “Sportdagi g‘alaba tuyg‘usi” deyiladi.

Zero, bunday tuyg‘u faqat g‘oliblarga va unshng Vatandoshlariga nasib qiladi. Aynan shu jarayonni boshidan kechirgan, bunday sharoitda ishtirok etgan har qanday ishtirokchi (sportchi, murabbiy, hakam, tomoshabin va hokazo) o‘z qalbida vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat, g‘urur-iftihor tuyg‘ularini yana bir bor his qilishi mukarrar. O‘z vatani, tug‘ilib o‘sgan ona yurti bilan faxrlanish hissi ishtirokchilarni shu onda ko‘proq to‘lqinlantirib yuboradi. Bildirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda aniq bir xulosaga kelish mumkin.

Demak, sport yoshlar tarbiyasida va mamlakatning ijtimoiy hayotida, uning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rnini, nufu‘zini oshirishda katta ahamiyatga ega. Agar mamlakatda sport bilan shug‘ullanuvchilar soni tobora ortib borsa aholining ommaviy salomatlik darajasi ham yuksalib borishi kuzatiladi. O‘z-o‘zidan sport sohasida xalqaro maydonlarda erishilayotgan natijalar salmog‘i yuqorilab boradi. Bu degan so‘z, mamlakatda yashaydigan insonlarning har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lishi ta‘minlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta‘limi tizimidagi maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4467-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.10.2019 y., 07/19/4467/3825-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. Toshkent, 2021.
3. <https://fayllar.org/kompetenciya-mavjud-bilim-knikma-va-malakalarni-kundalik-faoli.html>